

O’TKIR HOSHIMOVNING “SHAMOL ESAVERADI” QISSASIDA MA’NAVIYAT VA INSONIYLIK MASALASI

Hamroaliyeva Gulnoza
Farg’ona davlat universiteti
1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20567089>

Annotatsiya: Maqolada yozuvchi O’tkir Hoshimovning “Shamol esaveradi” qissasida insoniyatning ma’naviyati va insoniy hislatlari tasvirlangan. Unda insonning his-tuyg’ulari va ichki kechinmalari, onalarning farzandlariga qilgan o’g’itlari haqida so’z yuritiladi.

Kalit so’zlar: timsol, personaj, uslub, badiiy mahorat, qissa janri.

Kirish: O’zbekiston xalq yozuvchisi O’tkir Hoshimovning “Shamol esaveradi” qissasi 1966-yilda yozilgan asar bo’lib, o’z davrining ijtimoiy-axloqiy muammolarini, insoniy munosabatlar va vijdon pokligini namoyon etuvchi muhim asarlardan biri hisoblanadi. Asar nomidagi “shamol” ramziy ma’noga ega bo’lib, ushbu tushuncha inson irodasini sinash yo’lidagi vaziyatlarni, hayotdagi turli kelishmovchiliklar, nizolar va qiyinchiliklarni ifodalab keluvchi kalit so’z hisoblanadi. Asarda insonning asl qiyofasi og’ir damlarda, inson boshiga qiyin vaziyatlar tushganda ko’rinishi asosiy mavzulardan biri sifatida talqin qilingan. Asar qahramonlari yordamida insoniy harakterlar, jumladan, sadoqat, xiyonat, yaxshilik va yomonlik kabi tushunchalar o’rtasidagi kurash tasvirlanadi.

Asosiy qism. O’tkir Hoshimovning qissalariga xos bo’lgan bir qancha xususiyatlar ushbu asarda ham yaqqol aks etgan. Masalan, samimiylik va ta’sirchanlik kabi xususiyatlar insonni ta’sirlantirmay qo’ymaydi. Chunki qahramonlarning ichki kechinmalari, oilaviy muammolari ostidagi mushohadalari kitobxonni befarq qoldirmaydi. Insonning qaror qabul qilishi va ushbu qarorning o’z kelajagi uchun qanday ta’sir qilishi asarda psixologik jihatdan juda ustalik bilan ochib berilgan. Asarning o’quvchi tomonidan mutolaa qilinishi, yoki yaqindan tanishishi hayotning qadr-qimmatini tushunishga yordam beradi. Qissada qayd etilgan va insonni o’ylashga majbur qiluvchi fikrlarning ko’pligi ushbu asar insonga tarbiya borasida ham saboq berishi mumkinligini anglatadi. Masalan, asarda keltirilgan quyidagi parchaga e’tibor qaratsak: “Hayot goho topishmoqqa o’xshab qoladi. Tez orada taqdiringiz hal bo’lishini bilasiz-u, ammo nima bo’lishini, qanday bo’lishini topolmaysiz”¹. To’g’ri, inson o’z kelajagi uchun qancha harakat qilmasin, o’z orzulariga erishish uchun qancha qiyinchiliklarga uchramasin, baribir kelajakda bizni kutib turgan hayotimizdan boxabar bo’lolmaymiz.

Barchamizga ma’lumki, sevimli yozuvchimiz O’tkir Hoshimovning barcha asarlarida ona timsoli ulug’ siymo sifatida tasvirlanadi va onalar obrazi to’liq ochib beriladi. Shu jumladan, “Shamol esaveradi” qissasida ham onalar haqida dilni o’rtovchi fikrlar bayon etilgan. Asar bosh qahramonlaridan biri hisoblangan Mansurning onasi vafot etgandagi holat quyidagicha talqin qilinadi: “ U shuncha yillardan beri go’dak kabi ayasining panohida uxlab yotgan ekan. O’tgan hayotining hammasi tush ekan! Shuning uchun ayasining kun sayin so’lib borayotganini sezmay qolibdi. Mana bugun birdan uyg’onib ketdi, uyg’ondi-yu, suyangan tog’ini yo’qotib qo’ydi. Endi uni topolmaydi, hech qachon topolmaydi”². “So’nggi pushaymon o’zingga dushman” maqoliga tayangan holda aytishimiz mumkinki, biz ko’p narsalarni yo’qotgandan keyin qadriga yetamiz, ammo afsus-nadomatning, ko’z yoshning foydasi bo’lmaydi. Asarda aytilgan “ ...bola jindek betob bo’lsa, ona

¹ O’tkir Hoshimov. Ziyo nashr. Toshkent. 2019.

² Shamol esaveradi. O’tkir Hoshimov.toshkent. 2019.

sho'rlik vahimaga tushib qoladi: xuddi bolasi hoziroq o'lib qolayotgandek. Ona kasal bo'lganda esa bola vahima qilmaydi: xuddi onasini bog'lab bergandek...”³ kabi ta'sirli fikrlarning bayoni insonni ogohlikka chaqiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Asar bosh qahramonlari sifatida gavalangan Gavhar hamda Mansurning munosabatlari ham, ularga qarshi kuch sifatida tasvirlangan Tal'at obrazi ham, asardagi “yordamchi kuch” hisoblangan Zulayho hamda Abduhalil obrazlari ham asarning asosiy g'oyasini ochib berish uchun xizmat qilgan.

Yuqorida tilga olingan asar bosh qahramonlari, ya'ni Mansur va Gavharning muhabbati vaqt o'tishi bilan ortib boradi. Yoshligidan onasining qo'shni Gavharni kelin qilaman deb yurganini eshitgan Mansur u paytlarda unga ko'p e'tibor bermasdi, Gavhar esa Mansurning onasini o'z onasiday ko'rar, unga uy yumushlarida yordamlashar, Mansurni pinhona yoqtirardi. Bo'y yetgandan keyin chiroyiga chiroy qo'shilgan Gavhar oilasiga shaharda o'qish istagi borligini aytadi. Nima qilib bo'lsa ham shaharda o'qish, mutaxassis bo'lib yetishishga kirishgan Gavhar Mansur bilan xat orqali xabarlashadi. Mansur to'satdan vafot etgan onasini so'nggi yo'lga kuzatish maqsadida qishloqqa qaytadi. Gavhar bilan to'qnash kelgan Mansurning qalbida ham Gavharga nisbatan muhabbat tuyg'usi paydo bo'ladi. Mansur sevgilisi Gavharning xursanchiligi uchun hamma narsaga tayyor edi, hattoki umrida bir bor bo'lsa-da birovga yolvormagan Mansur Gavharning shaharda qolishi va u bilan bir shaharda yashashi uchun Tal'atga har qanday ishga roziligini aytadi. U imtihondan yiqilgan Gavharning ahvoliga chidolmagach, chuqur o'yga botadi. Nahotki u bilan bir joyda turolmasa, uning orzulari armonga aylansa... Tal'atning yordami bilan Gavhar o'qishda qoladi. Ammo uning na ro'yxatda ismi, na kursdoshlari oldida o'rni bor edi. Tal'atga ham yoqib qolgan Gavhar paxta terish bo'yicha “yulduz”ga aylanadi. Albatta bu ishlar ortida Tal'atning makkorligi va Gavharga bo'lgan qiziqishi turardi. U Gavharning o'qishda qolishiga yordam berishi o'z foydasiga edi. O'z maqsadiga erishish uchun jirkanch yo'llardan ham qaytmaydigan Tal'at oxir-oqibat qilgan ishlari uchun Mansur tomonidan jazolanadi va uni Gavhardan uzr so'rashini talab qiladi. Bunday ishlar odatiy hol bolgan Tal'atga bu turdagi jazo ham kor qilmaydi, uning qiyofasi har doim bir xil edi. Unga afsus-nadomat, achinish tuyg'ulari begona edi.

Muallif sevgini bahor yomg'iriga o'xshatadi. U qachon va qanday holatda yog'ishini hech kim bilmasligini, qiz bolaning qalbi guldek nozik bo'lishini, uni asrab-avaylash lozimligini uqtiradi. Afsuski bunday vzifalarni hamma birdek qabul qilolmaydi. Ammo chindan sevgan insongina suygan guliga zarar yetishini, uning boshqalar oldida uyalib qolishini istamaydi.

Asarda urush va front mavzulari ham tilga olinadi va hozirgi avlod tinchlik uchun qanchalik kurashish kerakligi va o'tmishdagi xatolaridan xulosa chiqarishi lozimligi ta'kidlanadi. Asarda keltirilgan ... “ hozirgi avlod, urush, front degan gaplarni ko'p pasanda qilyapsiz! Urush ko'rmagani uchun hozirgi avlod aybdor emas! Qo'ying, ko'rmasin ham. Siz bilan men kim uchun jang qildik! Mana shu avlod uchunmi, axir...”⁴ jumllarini o'qish ham yosh avlodga dalda bo'ladi va mas'uliyatliroq bo'lishi uchun yordam beradi.

Yozuvchi asarlariga xos yana bir jihat hayotiylikdir. Barcha asarlari kabi ushbu qissadagi voqealar va obrazlar ham real hayotga yaqin bo'lib, kitobxonni ishontira oladi va ta'sirlantiradi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, adibning “Shamol esaveradi” qissasida milliy qadriyatlar, insonlar o'rtasidagi munosabatlar va axloqiy muammolar yoritiladi. Muallif voqeahodisalarni sodda tilda bayon qilsa-da, ularning zamirida falsafiy ma'no mujassam. Shuning uchun

³ O'tkir Hoshimov. Ziyo nashr. Toshkent. 2019

⁴ Ziyo nashr. Toshkent.2019.

qissa nafaqat bir insonning taqdir yo'li haqida, balki butun jamiyatning ma'naviy va ichki qiyofasi haqida mushohada yuritishga undaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'tkir hoshimov. Ziyonashr. Toshkent. 2019.
2. Jadid.uz adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazetasining rasmiy sayti.
3. Xurshid Davron kutubxonasi.